“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL” 1028
Aljonova Nargiza Rashidjon qizi



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”

Alijonova Nargiza Rashidjon qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchi,

ORCID: 0009-0002-6775-4512

E-mail: nargizarashidjonqizi@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizmning ijtimoiy-madaniy ahamiyati hamda uning O‘zbekistonda milliy identiklikni mustahkamlashdagi o‘rni tahlil etiladi. Ilmiy tadqiqotlarda turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish omili, balki madaniy merosni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarini qayta anglash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham qaraladi. O‘zbekiston tajribasi misolida turizmning madaniy identiklikka ta’siri, madaniy merosning iqtisodiy muomalaga kiritilishi jarayonlari hamda barqaror turizm modelini joriy etish zarurati ilmiy asosda yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: turizm sotsiologiyasi, madaniy identiklik, milliy meros, barqaror turizm, O‘zbekiston, madaniy merosning tijoratlashuvi.

Abstract. This article examines the socio-cultural significance of tourism and its role in strengthening national identity in Uzbekistan. In academic research, tourism is considered not only a driver of economic development but also an important social institution that contributes to the preservation of cultural heritage, the reinterpretation of national values, and the promotion of social stability. Using the case of Uzbekistan, the study highlights the impact of tourism on cultural identity, the processes of heritage commodification, and emphasizes the necessity of implementing a sustainable tourism model.

Key words: tourism sociology, cultural identity, national heritage, sustainable tourism, Uzbekistan, heritage commodification.

Аннотация. В данной статье анализируется социально-культурное значение туризма и его роль в укреплении национальной идентичности в Узбекистане. В научных исследованиях туризм рассматривается не только как фактор экономического развития, но и как важный социальный институт, способствующий сохранению культурного наследия, переосмыслению национальных ценностей и обеспечению социальной устойчивости общества. На примере Узбекистана раскрывается влияние туризма на формирование культурной идентичности, процессы включения наследия в экономический оборот, а также обосновывается необходимость внедрения модели устойчивого туризма.

Ключевые слова: социология туризма, культурная идентичность, национальное наследие, устойчивый туризм, Узбекистан, коммерциализация культурного наследия.

KIRISH

Globalizatsiya zamonaviy jamiyatda madaniyat va turizm sohalarida jadal transformatsion jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. Turizm orqali kuchayib borayotgan madaniy almashinuv va transchegaraviy muloqot mahalliy an’analar hamda milliy meros uzluksizligini yangi sharoitlarda qayta talqin etishni taqozo etmoqda. Shu bois madaniy identiklik muammosi zamonaviy sotsiologiyada yetakchi tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Hozirgi ilmiy yondashuvlarda madaniy identiklik milliy o‘ziga xoslikni qat’iy saqlovchi barqaror kategoriya sifatida emas, balki global madaniy oqimlar ta’sirida uzluksiz ravishda qayta shakllanib boruvchi dinamik ijtimoiy jarayon sifatida talqin etiladi.

Turizm sotsiologiyasi nuqtai nazaridan madaniy identiklik murakkab va ko‘p qirrali xususiyatga ega. Bir tomondan, u tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va ramziy makonlarni asrab-avaylash hamda avlodlar o‘rtasida uzluksizlikni ta’minlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, global turizm industriyasining rivojlanishi jarayonida madaniy tajribalarni zamonaviy shakllarda taqdim etish, ularni iqtisodiy muomalaga kiritish va madaniy gibridlashuvni rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, turizm madaniy identiklikni ifodalovchi statik holat emas, balki uni doimiy ravishda qayta ishlab chiqish, ijtimoiy muzokara qilish va yangi shakllarda namoyon etish jarayoni sifatida qaraladi.



O'zbekiston tajribasi mazkur jarayonlarning mintaqadagi eng yorqin namunalardan biri hisoblanadi. Ming yillik sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan mamlakatda so'nggi yillarda turizmni jadal rivojlantirish, milliy madaniy merosni tiklash va asrab-avaylash, shuningdek, iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashga qaratilgan izchil davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Global turizm oqimlarining kengayib borishi esa milliy identiklikning zamonaviy sharoitlarda qanday saqlanayotgani, qay darajada yangilanayotgani va global madaniy jarayonlar bilan uyg'unlashayotgani masalasini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur tendensiyalar Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda turizm orqali milliy merosni namoyon etish borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar O'zbekiston tajribasini mintaqaviy qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv madaniy identiklik va turizm o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir mexanizmlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u nafaqat turizm sotsiologiyasi nazariyasini boyitadi, balki O'zbekiston va umuman Markaziy Osiyo mintaqasida amalga oshirilayotgan madaniy va turizm siyosatini takomillashtirish uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida olingan xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Jumladan, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon¹ [1], 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-sonli "Turizm to'g'risida"gi Qonun² [2], 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-sonli "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon³ [3], shuningdek, 2025-yil 15-maydagi PF-87-sonli "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon⁴ [4] mazkur yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ilmiy asos sifatida foydalanilishi mumkin bo'lib, turizm tizimining samaradorligini oshirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda milliy madaniy identiklikni mustahkamlashga amaliy hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Taniqli madaniy nazariyotchi Styuart Xoll madaniy identiklikka ikki xil yondashuvni taklif etadi. Birinchi yondashuvda u madaniy identiklikni umumiy tarix va ajdodlarga ega bo'lgan insonlarning yagona va mushtarak o'zligini ifodalovchi jamoaviy tushuncha sifatida talqin qiladi. Ikkinchi yondashuvda esa Xoll madaniy identiklikni tarixiy jarayonlar, madaniy kontekst va hokimiyat munosabatlari ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib boruvchi, mazmunan ko'p qirrali va dinamik fenomen sifatida izohlaydi [6].

Tadqiqotchi K. Amoiradis va uning hamkasblari "Turizmni ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida tahlil qilish: tanqidiy qarash" nomli ilmiy maqolalarida turizmni ijtimoiy va madaniy almashinuvni rivojlantiruvchi muhim fenomen sifatida baholaydilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, turizm mehmonlar va mahalliy jamoalar o'rtasida turli millat va e'tiqod vakillarini yaqinlashtirib, har ikki tomon uchun ham ijodiy va ijobiy ta'sirlarni yuzaga keltiradi [9].

Urbanizatsiya va globalizatsiya jarayonlarini tahlil qiluvchi ilmiy adabiyotlarda turizmning madaniyatga ta'siri ikki tomonlama jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv turizmni bir vaqtning o'zida madaniy almashinuvni kuchaytiruvchi va mahalliy madaniy tizimlarni qayta shakllantiruvchi omil sifatida ko'rsatadi [10].

Melaniy Smit o'zining ilmiy tadqiqotlarida globallashtirish sharoitida madaniy turizmning joyning o'ziga xosligi, madaniy meros va innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqani rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslab beradi [11]. Ushbu tadqiqot barqaror turizm modelini shakllantirishda mahalliy qadriyatlarini asrab-avaylash va ularni zamonaviy talqinlarda namoyon etish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

S. N. Zang boshchiligida o'tkazilgan tadqiqotlarda turizmning identiklikni yaratish, saqlash va yangilash jarayonlaridagi roli atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, turistlar tajribasi madaniyatni qayta shakllantirishda muhim ijtimoiy vosita sifatida namoyon bo'ladi [12].

J. M. Kanen Polineziya madaniy markazi misolida turizmning identiklikni faqat saqlab qolish bilangina cheklanmasdan, balki uni zamonaviy sharoitlarda qayta qurish imkonini beruvchi omil ekanini ko'rsatadi. Uning tadqiqotiga ko'ra, turizm an'anaviy qadriyatlarini tiklash bilan birga, jamoalarning o'z identikligini tizimli va samarali tarzda ifodalashini rag'batlantiradi [13].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.01.2019 yildagi PF-5611-son <https://lex.uz/uz/docs/-4143188>

2 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'RQ-549-son <https://www.lex.uz/docs/-4428097?ONDATE=14.05.2024%2000>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.07.2024 yildagi PF-102-son <https://lex.uz/uz/docs/-7031233?ONDATE=23.07.2024>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 15.05.2025 yildagi PF-87-son <https://lex.uz/uz/docs/-7531559>



B. Atasoy tomonidan amalga oshirilgan sistematik adabiyotlar sharhida turizm sotsiologiyasi doirasidagi asosiy tadqiqot yo'nalishlari yoritilgan. Unda turistik identiklik, asllik (authenticity) kabi konseptlarning turizm nazariyasidagi o'рни va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan [14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Madaniy identiklik — bu shaxsning muayyan madaniyat yoki ijtimoiy jamoaga mansublik hissini ifodalovchi hamda uning o'zini anglash jarayonida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy tushunchadir. Madaniy identiklik millat, etnos, din, ijtimoiy qatlam, avlod, geografik hudud, jins yoki o'ziga xos madaniy jamoalar kabi turli ijtimoiy guruhlar asosida shakllanishi mumkin [5].

Globalashuv sharoitida etnomadaniy identiklikni izchil va o'z vaqtida shakllantirib borish, shuningdek, uning mazmunini ijtimoiy, milliy va diniy qadriyatlar bilan boyitib borish mazkur identiklikning uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv kelajakda etnomadaniy identiklik chegaralarining zaiflashishi ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, etnomadaniy identiklik globalashuv jarayonlari sharoitida jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun etnomadaniy identiklikni chuqur tadqiq etish, uning vazifalari, tarkibiy qismlari va amal qilish mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, uning doimiyligi va uzviyligini ta'minlash masalalari o'rganilayotgan xalqning etnomadaniy o'ziga xosligini saqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, bugungi kunda "o'zlikni anglash" va u bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish alohida dolzarblik kasb etmoqda [7].

Etnomadaniy o'zlikni anglash — bu shaxsning muayyan madaniy belgilar asosida ma'lum etnojtimoiy tuzilma bilan umumiylikni idrok etishi hamda ushbu madaniy umumiylikning ruhiy kechinmalar orqali individual yoki jamoaviy shakllarda namoyon bo'lishini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir [8].

Mazkur tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalaniladi. Jumladan, kontent tahlil usuli orqali turizm siyosatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika ma'lumotlari va davlat organlarining ma'ruzalari tahlil qilinadi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan solishtirilib, madaniy identiklik va turizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning boy tarixiy merosi va rang-barang madaniy muhiti turizm sotsiologiyasi nuqtai nazaridan o'ziga xos va muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Mamlakat hududida joylashgan qadimiy shaharlar — Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent — nafaqat Buyuk Ipak yo'li sivilizatsiyalarining ajralmas tarkibiy qismi, balki turli madaniy qatlamlar o'rtasidagi uzoq muddatli va uzviy o'zaro ta'sirlarni mujassam etuvchi tarixiy-madaniy makonlardir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, ushbu shaharlar me'morchiligida Sharq va G'arb an'analari uyg'unlashgan bo'lib, mazkur holat transmadaniy muloqotning muhim tarixiy dalili sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston jamiyatiga xos bo'lgan bag'rikenglik va mo'tadil diniy an'analar turizmni sotsiologik jihatdan tahlil qilishda muhim omil sifatida qaraladi. Ushbu xususiyat mahalliy jamiyatning madaniy muloqotga ochiqligini hamda sivilizatsiyalar kesishmasida shakllangan ko'p qirrali madaniy identiklikni yaqqol namoyon etadi. Natijada O'zbekiston turli madaniyat va sivilizatsiyalar o'rtasida bog'lovchi ko'prik vazifasini bajarib, sayyohlar uchun nafaqat tarixiy va tabiiy obidalar majmuasi, balki chuqur ma'naviy va madaniy tajriba manbai sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar–may oylarida 4,2 mln nafar chet el fuqarosi turistik maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Mazkur ko'rsatkich mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi jozibadorligi ortib borayotganini hamda madaniy-tarixiy resurslarning samarali ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonga kirib kelgan turistlar statistikasi (2025 yil, yanvar–may) [15].

№	Davlatlar	Turistlar soni (ming nafar)	Ulushi (%)
1	Qirg'iziston	1 280,1	30,5 %
2	Tojikiston	993,7	23,7 %
3	Qozog'iston	889,6	21,2 %
4	Rossiya	334,3	8,0 %



5	Afg'oniston	199,2	4,8 %
6	Turkmaniston	142,5	3,4 %
7	Turkiya	65,8	1,6 %
8	Xitoy	51,9	1,2 %
9	Hindiston	28,5	0,7 %
10	Italiya	17,4	0,4 %
11	Boshqa davlatlar	201,1	4,8 %
	Jami:	4 204,1	

2024-yilning mos davriga nisbatan 48,2 % o'sish qayd etilgani 2025-yilning dastlabki besh oyida O'zbekiston turizm sohasida barqaror rivojlanish tendensiyasi shakllanayotganini ko'rsatadi. 2025-yilning yanvar–may oylariga oid ma'lumotlar O'zbekiston turizm tarmog'ida hozirgi bosqichda asosan qo'shni davlatlardan kelayotgan turistlar ustuvor o'rin egallayotganini tasdiqlaydi. Xususan, umumiy turistik oqimning 75 %dan ortig'i Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'iston fuqarolari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu holat bir qator ijobiy omillar bilan izohlanadi: qo'shni mamlakatlar bilan qulay transport-logistika aloqalarining mavjudligi, madaniy va etnik yaqinlik, shuningdek, vizasiz rejimning amalda bo'lishi natijasida barqaror va uzluksiz turistik oqim shakllanmoqda.

Sotsiologik nuqtai nazardan qaralganda, O'zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlarning asosiy qismi madaniy va etnik jihatdan yaqin davlatlardan bo'lishi transchegaraviy madaniy muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon mahalliy madaniy identiklikning qo'shni mintaqalarda kengroq targ'ib etilishiga, umumiy tarixiy-madaniy makonning ijtimoiy jihatdan mustahkamlanishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatning global turizm bozoridagi mavqeini yanada kuchaytirish maqsadida uzoq xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalarni kengaytirish va turizm sektorida diversifikatsiyani izchil amalga oshirish muhim strategik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur sharoitda O'zbekiston turizm sohasi oldida mintaqaviy turistik oqimning barqarorligini saqlab qolish bilan bir qatorda, uzoq xalqaro bozorlarga chiqish orqali mamlakatning jahon turizm xaritasidagi o'rnini mustahkamlash vazifasi turibdi.

O'zbekistonda madaniy identiklik jamiyatning tarixiy merosi, milliy an'analari va umumiy qadriyatlari asosida shakllanuvchi ijtimoiy-madaniy birlik sifatida namoyon bo'ladi. U xalqning o'zini anglash jarayonida, milliy davlatchilik g'oyalari mustahkamlashda hamda global jarayonlarda o'ziga xos o'rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy identiklik insonning muayyan madaniyat qadriyatlarini anglashidan boshlanib, o'zini mazkur jamoaning ajralmas a'zosi sifatida idrok etishi va yaqin ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali mustahkamlanishi jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi. Ushbu jarayon statik xarakterga ega bo'lmay, doimiy ravishda rivojlanib boruvchi va ijtimoiy-madaniy kontekstga bog'liq murakkab tizimni tashkil etadi.

Globalashuv sharoitida madaniy identiklikni saqlash va mustahkamlash bilan bir qatorda, turli madaniyatlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu jarayonda heritage commodification, ya'ni madaniy merosni turizm orqali iqtisodiy muomalaga kiritish jarayoni muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayon bir tomondan mahalliy jamiyatlar uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratib, an'anaviy madaniy qadriyatlarni saqlash va qayta tiklashga turtki beradi. Ikkinchi tomondan esa, madaniy ifodalarning zamonaviy shakllarda taqdim etilishi, ularning ommaboplashtirilishi va yangi mazmun bilan boyitilishi orqali milliy madaniyatning xalqaro miqyosda tanilishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlarning samaradorligi ko'p jihatdan mahalliy jamoalarning o'z madaniy merosini qanday ifodalashi va ushbu jarayondagi ijtimoiy nazorat mexanizmlarining rivojlanganligiga bog'liq.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda turizm madaniy identiklikka ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, turizm milliy me'morchilik, hunarmandchilik va an'anaviy madaniy merosning saqlanishi hamda keng ommalashishiga ijobiy turtki berib, mahalliy jamiyatda milliy g'urur va o'zlikni anglash hissini mustahkamlamoqda. Ikkinchi tomondan esa, global madaniy oqimlar bilan o'zaro ta'sir natijasida zamonaviy va gibrid madaniy shakllar yuzaga kelib, milliy brend yaratish va O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil aprel oyida o'tkazilgan videokonferensiya yig'ilishida ta'kidlaganidek, mamlakatda turizm sohasi jadal rivojlanmoqda. Ushbu jarayonda qayd etilayotgan raqamlar nafaqat iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, balki madaniy identiklikni mustahkamlash va milliy merosni global miqyosda targ'ib etish nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy-tahliliy ahamiyatga ega (2-jadval).



2-Jadval. O'zbekistonda turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari [16].

Ko'rsatkichlar	Qiymati
Turizm xizmatlari eksporti	\$3,5 mlrd (1,6 barobar o'sish)
Chet ellik turistlar soni	10 mln+
Turistik biznes subyektlari	2 mingta yangi
Sarmoya hajmi (2017–2025)	\$6,5 mlrd
Mehmonxonadagi mehmon o'rni	130 mingta
Madaniy meros obyektlari restavratsiya va konservatsiya qilindi (2021-2025)	327 ta

O'zbekistonda turizmning jadal rivojlanishi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda jamiyatning madaniy identikligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turizm madaniy merosni tiklash, uning jamiyat ongidagi ijtimoiy-madaniy qiymatini oshirish va tarixiy merosga bo'lgan munosabatni mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Yangi turistik infratuzilmalarda milliy me'morchilik va hunarmandchilik unsurlarining qo'llanilishi ushbu jarayonni yanada kuchaytirib, madaniy uzviylikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Turistik oqimning ortib borishi madaniy muloqotni faollashtirib, transmilliy almashinuv jarayonlarini kengaytiradi. Ushbu o'zaro ta'sir ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, bir tomondan, xorijiy turistlar mahalliy madaniyat bilan tanishib, uni global miqyosda targ'ib etadi, ikkinchi tomondan esa, mahalliy aholi xorijiy mehmonlar bilan muloqot jarayonida o'z qadriyatlarini qayta angalaydi va ularni zamonaviy ijtimoiy-madaniy tendensiyalar bilan uyg'unlashtiradi. Natijada madaniy identiklik dinamik model sifatida shakllanadi: an'anaviy meros saqlanib qolgan holda, milliy oshxona, amaliy san'at, bayramlar va turizm industriyasi orqali yangi mazmun bilan boyiydi.

Jahon sotsiologiyasida mazkur jarayon "heritage commodification", ya'ni madaniy merosning iqtisodiy muomalaga kiritilishi sifatida talqin etiladi. O'zbekiston tajribasi ushbu jarayonning muvozanatli xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi: bir tomondan, turizm madaniy merosning saqlanishi va milliy g'urning mustahkamlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, madaniy obyektlarning zamonaviy turistik mahsulot sifatida talqin etilishi orqali ularning ommaviyligi va tanilganligi oshadi. Shu sababli milliy merosni asrab-avaylash va uni iqtisodiy jihatdan samarali rivojlantirish o'rtasida muvozanatni ta'minlash O'zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tahlillar O'zbekistonda turizmning madaniy identiklikka ta'siri ko'p qirrali jarayon ekanini tasdiqlaydi. Turizmning rivojlanishi Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi tarixiy shaharlardagi madaniy meros obyektlarining restavratsiya va konservatsiyasiga kuchli turki berib, mahalliy aholi orasida milliy g'urur va o'zlikni anglash hissini mustahkamlamoqda. Shu bilan birga, turistik bozor talablari ta'sirida an'anaviy hunarmandchilik va milliy urf-odatlar zamonaviy shakllarda qayta talqin qilinib, ularning ommabopligi oshmoqda; xususan, qo'l mehnati asosida yaratilgan buyumlar turistik suvenirilar sifatida xalqaro bozorlarga chiqmoqda. Global turizm oqimlari ta'siri ostida mahalliy va xorijiy madaniy unsurlar uyg'unlashib, gibrid madaniy muhit shakllanmoqda, bu esa milliy brend yaratish va O'zbekistonning xalqaro maydondagi tanilishini tezlashtirmoqda.

2025-yilning dastlabki besh oyida umumiy turistik oqimning 75 %dan ortig'i Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'iston fuqarolari hissasiga to'g'ri kelgani qayd etildi. Ushbu holat transport-logistika qulayligi, etnik-madaniy yaqinlik va vizasiz rejimning mavjudligi bilan izohlanadi. Mintaqaviy turistlar ustunligi turizmning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etsa-da, global turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida uzoq xorijiy davlatlar bilan madaniy va turistik hamkorlikni kengaytirish zarurligi ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston milliy meros obyektlarini zamonaviy infratuzilma bilan uyg'unlashtirish orqali turizmni diversifikatsiya qilishga e'tibor qaratmoqda, Qirg'iziston ekoturizm va etnoturizm orqali milliy an'analarni turistik mahsulot sifatida rivojlantirmoqda, Tojikiston esa tarixiy meros bilan bir qatorda diniy va ma'rifiy turizmni kengaytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda. O'zbekiston tajribasi esa madaniy merosni qayta tiklash va uni global turizm tizimiga integratsiya qilish jarayonida mo'tadil, muvozanatli va barqaror model sifatida namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon ilmiy tadqiqotlarida turizm faqat iqtisodiy faoliyat sohasi sifatida emas, balki madaniy merosni asrab-avaylash, milliy identiklikni mustahkamlash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, turizm milliy brend va madaniy diplomatiya vositasiga aylanish orqali davlatlarning global maydondagi imijini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.



O'zbekiston uchun turizmni rivojlantirishda bir nechta strategik yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, milliy brendni xalqaro miqyosda izchil targ'ib qilish va turizmni madaniy muloqot platformasi sifatida shakllantirish, barqaror turizm modelini joriy etish orqali tarixiy va tabiiy merosni asrab-avaylash, shuningdek, milliy qadriyatlarni zamonaviy marketing strategiyalari bilan uyg'unlashtirish mazkur siyosatning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari tajribasi bilan olib borilgan qiyosiy tahlil natijalari O'zbekistonning turizm siyosati madaniy merosni saqlash va uni global integratsiya jarayonlari bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv milliy identiklikni mustahkamlash bilan birga, mamlakatning xalqaro imijini rivojlantirish va uning turizm sohasidagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm milliy merosni saqlash va uni global miqyosda targ'ib etish orqali madaniy identiklikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, global turizm jarayonlari ta'sirida mahalliy an'analarning zamonaviy shakllarda talqin etilishi va madaniy almashinuvning kuchayishi kuzatiladi. Mintaqaviy turistik oqimlar madaniy yaqinlik va tarixiy umumiylik tufayli barqaror bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, uzoq xalqaro bozorlarga chiqish zarurati ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu jarayonlarni tahlil qilishda turizm sotsiologiyasi madaniy identiklikni tarixiy, ijtimoiy va global kontekstda anglash imkonini beruvchi samarali nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'rganilgan ilmiy va amaliy natijalar asosida O'zbekiston sharoitida bir qator muhim yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, milliy meros obyektlarini restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bir qatorda, ularni turizm orqali talqin etishda mahalliy aholining faol ishtirokini kengaytirish, turizm mahsulotlarida milliy qadriyatlarni saqlash va ularning iqtisodiy muomalaga kiritilishini ijtimoiy jihatdan muvozanatlashgan siyosatlar orqali tartibga solish, marketing strategiyalarini nafaqat mintaqaviy, balki global turistik bozorlarga yo'naltirish, shuningdek, madaniy muloqotni kengaytirish maqsadida xalqaro festivallar, ilmiy anjumanlar va turizm forumlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, turizmni rivojlantirish jarayonida sotsiologik tadqiqotlardan tizimli foydalanish davlat siyosatini ilmiy asosda yo'naltirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tajribasi turizmning nafaqat iqtisodiy samaradorligini, balki uning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini ham ochib berib, global ilmiy bahslar va amaliy tadqiqotlar uchun muhim nazariy hamda amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon. <https://lex.uz/docs/4143188>
2. 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-sonli "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/docs/4428097>
3. 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-sonli "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon. <https://lex.uz/uz/docs/7031233>
4. 2025-yil 15-maydagi PF-87-sonli "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon. <https://www.lex.uz/uz/docs/7531559>
5. Cultural Identity – Definition and Explanation. <https://oxford-review.com/the-oxford-review-dei-diversity-equity-and-inclusion-dictionary/cultural-identity-definition-and-explanation/>
6. Hall, S. Stuart Hall (Cultural Theorist). [https://en.wikipedia.org/wiki/Stuart_Hall_\(cultural_theorist\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Stuart_Hall_(cultural_theorist))
7. Askarov, M. Zamonaviy jamiyatda "identiklik" masalasi // Mejdunarodnaya nauchno-retsenziruemaya onlayn konferensiya "Sovremennaya psixologiya i pedagogika: problemy, analiz i rezultaty". — E-science.uz, 2020, 1-qism, 30–36-betlar.
8. Ortiqov, Yo. "Etnomadaniy o'zlikni anglash (identiklik)" tushunchasi va uning mohiyati.
9. Amoiradis, Ch., Velissariou, E. Tourism as a Socio-Cultural Phenomenon: A Critical Analysis. https://www.researchgate.net/publication/352849236_Tourism_as_a_Socio-Cultural_Phenomenon_A_Critical_Analysis
10. Heritage Commodification. https://en.wikipedia.org/wiki/Heritage_commodification
11. Smith, Melanie Kay. Issues in Cultural Tourism Studies: Motivation for Cultural Tourism, Ethnic Cultural Tourism and Sustainable Management.
12. Zhang, Shu-Ning; Ruan, Wen-Qi. National Identity Construction in Cultural and Creative Tourism: The Double Mediators of Implicit Cultural Memory and Explicit Cultural Learning.
13. Caneen, Jeffery M. Tourism and Cultural Identity: The Case of the Polynesian Cultural Center.
14. Atasoy, Burak. Sociology and Tourism: A Systematic Literature Review.
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://www.stat.uz/uz/>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/8049>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>